

MAMLAKATIMIZDA BOLALAR HUQUQLARINI TA’MINLASH BO‘YICHA ISLOHOTLAR NATIJALARIGA YUQORI BAHO BERILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-may kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo‘lib turgan BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) ijrochi direktori Ketrin Rasselni qabul qildi.



BMT tizimidagi ushbu yetakchi ixtisoslashgan institut bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida UNICEF rahbari O‘zbekiston yetakchisiga BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning samimiy salomini yetkazdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalariga yuqori baho berilib, bolalar huquqlarini ta’minlash va imkoniyatlarini kengaytirish sohasidagi milliy dastur qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston va UNICEF o‘rtasidagi hamkorlik keyingi yillarda yuksak darajaga chiqqani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tashkilot ko‘magida mamlakatimizda bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha qonun, aholini ijtimoiy himoya qilish va bolalar onkologiyasiga qarshi kurashish sohasida strategik hujjatlar qabul qilindi. Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish va vaksinatsiya tizimini rivojlantirishga ko‘maklashildi.

Qonunchilikni takomillashtirish, bolalarni parvarish qilish va qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, ijtimoiy xizmat va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va ularning sifatini yaxshilash, milliy standartlarni ishlab chiqish, ijtimoiy sug‘urtani kengaytirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

2030-yilgacha mo‘ljallangan yangi Mamlakat dasturini qabul qilish, shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini ilgari surish masalalari bo‘yicha qator xalqaro tadbirlarni birgalikda o‘tkazishga kelishib olindi.

ITALIYA BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Sammit davlatimiz rahbarining 2023-yil 7-9-iyun kunlari Italiyaga rasmiy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq o‘tkaziladi.

Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi muzo-karalarda O‘zbekiston — Italiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Innovatsion hamkorlik va gumanitar almashinuv loyihalarini ilgari surish diqqat markazida bo‘ladi.

Yakunda ikki tomonlama bitimlar to‘plamini imzolash ko‘zda tutilgan.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – ITALIYA: BARQAROR RIVOJLANISHGA QARATILGAN UZOQ MUDDATLI STRATEGIK HAMKORLIK

Italiya Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari O‘zbekistonda bo‘ladi

Ushbu tashrif 1992-yil mart oyida boshlangan O‘zbekiston — Italiya munosabatlarining zamonaviy tarixida muhim bosqich bo‘ladi. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilishi bilanoq Toshkentda Italiya elchixonasi, 1998-yilda esa Rimda O‘zbekiston vakolatxonasi ochildi.

► Davomi 2-betda

ICHIMLIK SUV TA’MINOTI AHOLI TURMUSH SIFATI UCHUN MUHIM

Davlatimiz rahbariga ichimlik suv va oqova tarmoqlarini kengaytirish borasidagi ishlar yuzasidan axborot berildi.

Aholining turmush sifati va salomatligida g‘oyat muhim bo‘lgan bu yo‘nalish izchil kengaytirib borilmoqda. Ijtimoiy va hududiy dasturlar doirasida ko‘plab inshootlar barpo etilmoqda. Hozirga kelib, aholi mavzellarining 81 foizi ichimlik suv, 20 foizi oqova tizimi bilan ta‘minlangan.

Bu yil 1 ming 619 kilometr ichimlik suv, 521 kilometr oqova suv tarmoqlarini tortish, 162 ta inshootni qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Bularning natijasida 715 ming aholiga ilk bor markazlashgan ichimlik suv yetib boradi, yana 400 ming nafari oqova xizmati bilan qamrab olinadi.

Mutasaddilar shu boradagi ish-larning bajarilishi bo‘yicha axborot berdi.

Xalqaro moliya institutlari ish-tirokida 21 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Bu yil 800 million dollarlik ishlarni bajarib, 138 ta suv inshootini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Osiyo taraqqiyot banki va Ger-maniya taraqqiyot banki bilan loyiha oldi moliyalashtirish bo‘yicha yaxshi tajriba yo‘lga qo‘yildi. Bunda pudratchi va loyihachi oldindan tanlangani uchun amaliy ishlar boshlanishi tezlashdi. Kelgusida barcha loyihalarda shu

TEMIR YO‘L SOHASI INFRATUZILMASI RIVOJLANTIRILISHI KO‘RSATIB O‘TILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev temir yo‘llarni rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 10-oktabrdagi qaroriga muvofiq, bu soha tubdan isloh qilinmoqda. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibiy jihatdan o‘zgartirilib, nosohaviy bino, yondosh yer va ortiqcha vazifalar qisqartirildi. Natijada ilgari zarar bilan ishlagan kompaniya o‘tgan yili 47 milliard so‘m sof foyda bilan chiqdi. “Temiryo‘lkargo” kompaniyasi tashkil etilgach, yuk vagonlaridan foydalanish samaradorligi 2 karra oshdi.

Lekin hali imkoniyatlar ko‘p. Taqdimotda soha infratuzilmasini rivojlantirish va daromadni oshirish vazifalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Xususan, tranzit yuklarini tashish quvvatidan to‘liq foydalanilmayapti. Buni kelgusi yillarda 40 foizga oshirish orqali daromadni 2 karra ko‘paytirish mumkin.

Masalan, ilk bor Xitoy — Turkiya yo‘nalishi bo‘yicha yuk poyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Yurtimizga yangi poyezdlar olib kelinib, qatnovlar yildan yilga ko‘paymoqda. Shu bois, temir yo‘l infratuzilmasi o‘tkazuvchanligini izchil oshirib borish zarurligi ta’kidlandi.

Bu masala, ayniqsa, Toshkent atrofida dolzarb. Hozir tashqi yuklarning 70 foizi “Chuqursoy” stansiyasi orqali tashilmoqda. Ba’zan bunga bir necha kun vaqt sarflanib, ortiqcha xarajat va navbatga sabab bo‘lyapti.

Shu bois, yuk stansiyalarini poytaxt hududidan tashqariga chiqarish, Yangiyo‘l tumani va Yangi Toshkent yaqinida yirik stansiyalar barpo etish taklif qilinmoqda. Shuningdek, poytaxtimizni aylanib o‘tuvchi “Ozodlik — Yangiyer” temir yo‘li qurilishi ko‘zda tutilgan. Natijada Farg‘ona vodiysi bilan boshqa viloyatlar o‘rtasidagi yuk tashuvlari Toshkent shahriga kirmasdan amalga oshiriladi.

Yangi loyihalardan yana biri Samarqand — Urgut yo‘lidir. Hozirda ishlar boshlanib, 7 kilometr temir izar yotqizilgan. Bu yo‘nalish uzunligi jami 54 kilometr bo‘lib, 2 ta vokzal, “Urgut” iqtisodiy zonasida 2 ta yuk stansiyasi quriladi.

Vokzallarga kirib-chiqish tartibi, xizmatlar sifati masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi. Yo‘lovchilar harakatiga qulaylik yaratish, turistlar uchun sharoitni yaxshilash, avtoturargohlarni kengaytirish vazifalari qayd etildi.

Mutasaddilar, shuningdek, elektropoyezdlar olib kelish, xizmat sifatini yaxshilash rejalari bo‘yicha axborot berdi.

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

SHAXSIY MAS’ULIYAT VA QAT’IY IJRO INTIZOMI — oliy ta’lim sohasidagi islohotlar muvaffaqiyatining mustahkam poydevori

Mamlakatimizda oliy ta’lim sohasidagi tub islohotlar yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yorqin ifodasidir. Prezidentimiz rahbarligida ta’limni milliy taraqqiyotning yuragiga aylantirish maqsadida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar xalqimizni ruhlantirmoqda, yuraklarga ishonch bag‘ishlamoqda. Bu kelajak avlodni yetuk, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh shaxslar etib tarbiyalashga qaratilgan buyuk maqsaddir.

Ijro intizomi va shaxsiy mas’uliyat — islohotlarning yuragi

Bugun oliy ta’lim faqat auditoriya bilan cheklanib qolmayapti. U milliy taraqqiyot, ma’naviy yuksalish va innovatsion salohiyatni yuzaga chiqarayotgan kuchli omilga

aylanmoqda. Bu jarayonda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat

organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, shuningdek, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, har bir rahbar va davlat xizmatchisidan yuksak shaxsiy mas’uliyat va intizom talab etiladi. Islohotlarning muvaffaqiyati aynan shu omillarga bog‘liq: shaxsiy mas’uliyat va o‘z vazifasiga sadoqat bilan yondashish bugunning talabidir.

Vazirlikka “Ijro.gov.uz” tizimi orqali 2024-yilda bajarilishi lozim bo‘lgan 3382 ta topshiriq kelib tushgan. Shundan 1 tasi O‘zbekiston Respublikasi qonunidagi, 532 tasi Prezident farmonlaridagi, 2301 tasi Prezident qarorlaridagi, 20 tasi Prezident farmoyishlaridagi

hamda 528 tasi Prezident yig‘ilishlari bayonidagi topshiriqlardir. Ushbu topshiriqlarning barchasi vazirlik tomonidan o‘z muddatida bajarilgan.

Shuningdek, “Ijro.gov.uz” tizimi orqali vazirlikka 2025-yil yanvar-may oylarida 1226 ta topshiriq kelib tushgan. Shundan:

- 1 tasi O‘zbekiston Respublikasi Qonunidagi topshiriqlar;
- 220 tasi Prezident farmonlaridagi topshiriqlar;
- 822 tasi Prezident qarorlaridagi topshiriqlar;
- 13 tasi Prezident farmoyishlaridagi topshiriqlar;
- 170 tasi Prezident yig‘ilishlari bayonidagi topshiriqlar bo‘lib, barchasi o‘z muddatida bajarildi.

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

ERTAMIZ EGALARI UCHUN BIRLASHGAN JAMIYAT BOLALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH FONDI FAOLIYATI MISOLIDA





O‘ZBEKISTON – ITALIYA: BARQAROR RIVOJLANISHGA QARATILGAN UZOQ MUDDATLI STRATEGIK HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

2021 va 2023-yillardan buyon Florensiya va Milanda O‘zbekistonning faxriy konsulligi institutlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu institutlar esa xalq va iqtisodiy diplomatiyani mustahkamlash hamda kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 8-9-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan Italiyada bo‘ldi. Tashrif yakunlari bo‘yicha ikki davlat o‘rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya qabul qilindi.

O‘sha yilning 9-11-noyabr kunlari Italiya Prezidenti Serjo Mattarella rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.

Siyosiy muloqot faol qo‘llab-quvvatlanmoqda va yuqori darajada davom ettirilmoqda. 2019-yil dekabr va 2021-yil sentabr oylarida O‘zbekiston va Italiya tashqi ishlar vazirlari o‘zaro tashrif almashishdi. 2024-yil may oyida esa Rimda bo‘lib o‘tgan Italiya — Markaziy Osiyo uchinchi vazirlar konferensiyasi doirasida uchrashuvlar o‘tkazildi. Ta’kidlash joizki, Rim Yevropaning 2019-yilda vazirlar darajasida ushbu muloqotni o‘rnatishni boshlagan birinchi davlati edi.

Bundan tashqari, ikki davlat tashqi siyosat idoralari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik ham izchil rivojlanayapti. Xususan, 2011-yildan buyon Italiya parlamenti Deputatlar palatasi va Senati bilan hamkorlik qilish bo‘yicha O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatida do‘stlik guruhlar faoliyat yuritmoqda. 2012-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Italiya parlamenti Deputatlar palatasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

2023-yil aprel oyida Italiya parlamentida Italiya — Markaziy Osiyo do‘stlik guruhi tuzildi.

Italiya parlamentining Senat Xalqaro ishlar qo‘mitasi raisi, Italiya Parlamentlararo assambleyasi faxriy prezidenti Pyer Ferdinando Kasini boshchiligidagi delegatsiyasi 2025-yil 5-9-aprel kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida faol ishtirok etdi.

O‘zbekiston va Italiya xalqaro tashkilotlar — BMT, YXHT, Yevropa Ittifoqi va boshqa tuzilmalar doirasida ham faol hamkorlik qilyapti. Italiya O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish va Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi yangi bitimni tuzish borasidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, tomonlar, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan Italiya — Markaziy Osiyo muloqoti doirasida ham faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

aylangan Yevropa Ittifoqining “GSP+” imtiyozli tizimi ko‘p jihatdan yordam bermoqda.

1992-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Savdo, iqtisodiyot va sanoat hamkorligi va eksport kreditlari masalalari bo‘yicha O‘zbekiston — Italiya hukumatlararo ishchi guruhi ham ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va sheriklikni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil iyun oyida Italiyaga tashrifi munosabati bilan Rimda ikki tomonning 200 dan ortiq tadbirkor va kompaniyasi vakillari ishtirokida O‘zbekiston — Italiya biznes forumi bo‘lib o‘tdi. Biznes forum yakunlari bo‘yicha jami 9,2 milliard yevroga teng 38 ta investitsiyaviy bitim, texnologik hamkorlik to‘g‘risidagi 13 ta bitim hamda 13 ta eksport shartnomasi imzolandi.

O‘zbekiston Prezidenti ushbu mamlakatga tashrifi chog‘ida Italiyadagi yirik kompaniya



Davlatimiz rahbarining 2023-yil iyun oyida Italiyaga tashrifi munosabati bilan Rimda ikki tomonning 200 dan ortiq tadbirkor va kompaniyasi vakillari ishtirokida O‘zbekiston — Italiya biznes forumi bo‘lib o‘tdi. Biznes forum yakunlari bo‘yicha jami 9,2 milliard yevroga teng 38 ta investitsiyaviy bitim, texnologik hamkorlik to‘g‘risidagi 13 ta bitim hamda 13 ta eksport shartnomasi imzolandi.

O‘zbekiston bilan Italiya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy sheriklik izchil rivoj topmoqda. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2017-yildagi 172,2 million dollardan 2024-yilda qariyb 438 million dollarga yetdi. Bunga mamlakatlar o‘rtasida amalda bo‘lgan eng qulay savdo rejimi, shuningdek, mamlakatimiz 2021-yilda benefitsiarga

va sanoat birlashmalari rahbarlari bilan ham uchrashuv o‘tkazdi. Muloqot Milan shahrida davra suhbat formatida bo‘lib o‘tdi.

2023-yilning 7-8-sentabr kunlari Italiya qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat suvereniteti va o‘rmon xo‘jaligi vaziri Franchesko Lollobrigida hamda Italiya tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri o‘rinbosari

Edmondo Chiriyelli FAO shafeligida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. 2024-yil oktyabr oyida esa Rimda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari Alisher Shukurov Italiya qishloq xo‘jaligi vaziri Franchesko Lollobrigida bilan uchrashdi.

O‘zbekiston tadbirkorlari Italiyada o‘tkazib kelinayotgan “Tuttofood”, “Macfrut”, “Simac Tanning Tech”, “TTG Rimini” va “Artigiano in Fiera” kabi xalqaro ko‘rgazmalarda muntazam ishtirok etyapti.

O‘zbekistonda Italiya investitsiyasi ishtirokidagi 55 ta korxona, jumladan, 24 ta 100 foiz xorijiy sarmoya asosida faoliyat yuritadi. Italiyaning 9 ta kompaniyasi, shuningdek, Italiya — O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi vakolatxonalarini O‘zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida akkreditatsiyadan o‘tgan.

Italiya investitsiya va texnologiyalari ishtirokida mamlakatimizda gaz taqsimlash tizimlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, hashamatli temir yo‘l kruizlarini yo‘lga qo‘yish, Jizzax viloyatida za‘faron yetishtirish, chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilayotir.

2023-yil mart oyidan boshlab Toshkent, Milan va Rim shaharlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilgani ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Madaniy-gumanitar hamkorlik O‘zbekiston — Italiya munosabatlarining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Xususan, 1998-yil sentyabr oyida mamlakatimizda O‘zbekiston — Italiya do‘stlik jamiyati tashkil etildi.

O‘zbekistonda Turin va Piza universitetlari filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda Buxoroda Luijdji Vanvitelli nomidagi Kampaniya universitetining filiali ochildi. 2024-yil sentabr oyida Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida

O‘zbekistonning 45 va Italiyaning 23 ta oliy o‘quv yurti rahbarlari ishtirokida O‘zbekiston — Italiya birinchi rektorlar forumi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

2025-yil 25-aprel kuni Samarqand shahrida ikki davlat oliy ta’lim muassasalari rektorlari ishtirokida davra suhbat bo‘lib o‘tdi va tadbir doirasida fan va ta’lim sohasiga oid 6 ta hujjat imzolandi.



2024-yil Italiyada O‘zbekistonga bag‘ishlangan ko‘plab madaniy tadbirlar o‘tkazilgani bilan yodda qoldi. “O‘zbekiston: sahradagi avangard” ko‘rgazmasi 2024-yilning 15-apreldan 30-iyuniga qadar Florensiyada va 2024-yilning 16-apreldan 30-iyuniga qadar Venetsiyadagi Ka Foscari universitetida bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, 4-9-dekabr kunlari Rim, Milan va Viarejio shaharlarida O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazildi.

Italiya vakillari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida muntazam ishtirok etib kelmogda. E’tiborlisi, Italiya vakillari bir necha bor ushbu nufuzli festivalning Gran-pri va maxsus sovrinlarini qo‘lga kiritgan.

O‘z navbatida, 2018-yilda Rimda bo‘lib o‘tgan “Aziatika” XIX xalqaro Osiyo filmlari kinofestivalida “Tohir va Zuhra” filmi jahon kinosi rivojiga, umuminsoniy qadriyatlarini targ‘ib etishga qo‘shgan hisssasi uchun maxsus diplom bilan taqdirlandi.

Ketma-ket beshinchi yildirki (2021-yildan 2025-yilgacha), O‘zbekiston milliy pavilyoni

Venetsiyadagi Xalqaro arxitektura va san’at biennalesining italiyalik va xorijlik mehmonlari orasida katta muvaffaqiyatga erishyapti. Yana bir e’tiborga molik yangilik shu yil 8-may kuni 19-Venetsiya xalqaro arxitektura biennalesida O‘zbekiston milliy pavilyoni ochilgani bo‘ldi.

Ikki davlat o‘rtasida sport sohasidagi aloqalar ham mustahkamlanib boryapti. Xususan, Italiyada o‘zbek milliy kurashiga qiziqish juda yuqori, shu bois, mazkur mamlakatda O‘zbek kurashi akademiyasi tashkil etilgan. 2024-yilning 23-24-iyul kunlari Rimda kurash bo‘yicha O‘zbekiston Prezidenti sovrini uchun xalqaro turnir o‘tkazildi. Unda 17 davlatdan 33 polvon o‘zaro bellashdi.

O‘z navbatida, Toshkentda Italiyaning “Yuventus” futbol klubi akademiyasi faoliyat yuritaypti. Shuningdek, O‘zbekiston va Italiya ot sporti hamda velosport federatsiyalari o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilgan.

Shu tariqa tomonlar muloqotni chuqurlashtirish, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish va gumanitar almashinuvni rivojlantirishdan manfaatdor ekanini namoyon qilyapti. Bu O‘zbekiston — Italiya strategik sherikligini konstruktiv hamkorlik namunasiga aylantirmoqda.

Aytish joizki, Italiya Bosh vaziri Jorja Melonining O‘zbekistonga bo‘ljak tashrifi ikki tomonlama munosabatlarini yanada chuqurlashtirishda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Tashrif, shuningdek, avval oliy darajadagi tashriflar chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda muhim bosqich bo‘lishi hamda O‘zbekiston — Italiya sherikligi orqali Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi barqaror aloqalarni mustahkamlashga hissa qo‘shish va hamkorlikni yanada kengaytirishga yangi sur‘at bag‘ishlashi kutilmoqda.

“Dunyo” AA



1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

ERTAMIZ EGALARI UCHUN BIRLASHGAN JAMIYAT BOLALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH FONDI FAOLIYATI MISOLIDA



Marat SODIQOV,
Bolalarni qo‘llab-quvvatlash fondi
ijrochi direktori

Mamlakatimizda barcha sohalaridagi, jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi keng ko‘lamli islohotlar, ijtimoiy himoya mexanizmlari kelajagimiz davomchilarining farovon hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Har bir bola xalqning kelajagi, millatning ma’naviy va intellektual salohiyati ifodasidir. Ularning oiladagi o‘rmi, ta’lim olish imkoniyatlari, sog‘lom ulg‘ayishi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi kattalarning mas’uliyati hisoblanadi. Bolaning begonasi bo‘lmaydi. Ular har birimizning qayg‘urishimizga, mehribonlik va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishimizga muhtoj.

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoya qilish tamoyillari, inklyuziv va erkin ta’limga e’tibor, ular uchun yaratilayotgan jismoniy, ma’naviy-ma’rifiy muhit kelajakda mustahkam poydevorga ega, bilimli, axloqli va mas’uliyatli avlodni shakllantirishga xizmat qilishi bilan tahsinga sazovor.

2021-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi bolalar huquqlarini ta’minlash va ijtimoiy himoyasini mustahkamlashda muhim tuzilmaga aylandi. Fond Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasi muassisligida ish boshlagan bo‘lib, jamiyatning eng nozik qatlami — ertamiz davomchilari manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli faoliyatni amalga oshirib kelmogda.

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni butun dunyoda bolalar huquqlarini ta’minlash, ularning hayoti va kelajagiga nisbatan mas’uliyatni chuqurroq anglab yetish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kuni sifatida keng nishonlanadi.

Fondning asosiy yo‘nalishlari muhtoj va og‘ir holatdagi bolalarni aniqlash hamda manzilli ijtimoiy va tibbiy yordam ko‘rsatish, og‘ir va orfan (kam uchraydigan) kasallikka chalingan bolalar mahalliy va xorijiy klinikalarda davolanishini tashkil etish, kam ta’minlangan oilalar farzandlarini dori-darmon, protez-ortopedik vositalar bilan ta’minlash hamda nogironligi bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim, reabilitatsiya va kasb-hunarga yo‘naltirish imkoniyatlarini yaratish kabilarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, “Bolalarga tabassum”, “Sog‘lom yurak”, “Ezgulik manzili”, “Mohir qo‘llar”, “Kelajak sari” kabi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish ham fondning vazifalari sirasiga kiradi.

2022-2024-yillarda qiyin sharoitga tushgan, moliyaviy yetishmovchiligi bo‘lgan oilalarning bemor, nogironligi bo‘lgan bolalariga tibbiy hamda ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha jami 10 ming 357 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 7639 bolaga chuqurlashtirilgan tibbiy-diaagnostika tekshiruvlari o‘tkazildi. 1070 nafarida tibbiy aksiyalar davomida operatsiya amaliyotlari bajarildi. 90 nafari esa xorij klinikalarida operatsiya qilimib, sog‘lomlashtirildi. 220 bolajonga ijtimoiy holatidan kelib chiqib turli yordamlar ko‘rsatildi. 1305 nafarining ta’lim olishi uchun zarur adabiyotlar, texnik asbob-uskunalar, o‘quv qurollari xarid qilindi. 33 bola esa kasb-hunarga o‘qitilib, o‘zini o‘zi band qilishi uchun zarur asbob-uskunalar olib berildi.

Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi Vasiylik kengashi tomonidan o‘tkazilgan yig‘ilishlarda 231 ta masala muhokama uchun kiritilgan. Shu davrda qator mahalliy va chet el nufuzli klinikalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi hamda og‘ir tashxisli, respublikada davolab bo‘lmaydigan 110 nafar bemor bola (ilik ko‘chirish, a’zolar

transplantatsiyasi, o‘zak hujayralar bilan davolash va hokazo) davolanishi uchun nufuzli chet el klinikalariga yuborildi. Bundan tashqari, og‘ir tashxisli 140 bemor bola fond tomonidan olib kelingan chet el mutaxassislari yordamida mamlakatimizda jarrohlik amaliyotini o‘tkazdi. Agar sanayversha, amalga oshirilgan ishlar ro‘yxatini uzoq davom ettirish mumkin.

Faoliyatimizda har bir bolaning ehtiyojiga mos, manzilli va barqaror yordam ko‘rsatish e’tibor markazida turadi. U bolaning jismoniy va ma’naviy rivojlanishi, qobiliyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Ular o‘z tengdoshlari qatorida ta’lim olishi, ijod qilishi, hayotda o‘z o‘rnini topishi kerak. Bu fondning har bir loyihasida o‘z ifodasini topishi shart qilib qo‘yilgan.














Fond nainki moddiy yordam taqdim etadi, balki insonparvarlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglikni targ‘ib etadigan ko‘priq vazifasini ham bajaradi.

1-iyun kuni biz, kattalarni bolalar uchun sog‘lom muhit yaratish, huquqlarini himoya qilish, ta’lim va sog‘liqqa oid muammolarni hal etishda hamkorlikka da’vat etishi ayni muddao va bu lozim ham.

Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatiga qo‘shilish, xayrli ishga hissa qo‘shish barcha fuqarolar uchun ochiq. Tadbirkorlar, yirik kompaniyalar, jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar fondning rasmiy veb-sayti — bolalarfondi.uz orqali onlayn xayriya amalga oshirishi, loyihalarda ishtirok etishi, hamkorlik takliflari yuborishi mumkin. Bolalarning kulib turgan yuzi, sog‘lom va baxtli hayot kechirishi esa bu xayrli amallarning mukofoti bo‘ladi. Keling, birgalikda ezigulikni targ‘ib qilaylik, boshqalarni ham o‘zimizga ergashtiraylik. Chunki bolalar kelajagi millatimiz kelajagidir.






























Nuqtayi nazar



O‘ZBEKISTON – VENGRIYA ALOQALARI SOLNOMASIDA YANGI SAHIFA OCHILADI

O‘zbek va venger xalqlari o‘zining boy tarixi, betakror ma’naviy-madaniy merosi, jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlari bilan faxrlanadi. Tarixiy va madaniy jihatdan umumiy xususiyatlarga ega ikki davlat iqtisodiy salohiyati ham ko‘p tarafлама bir-birini to‘ldiradi.



Odinoxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

juda samarali bo‘ldi. Ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona va manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining xorijiy mamlakatlarga tashrifi davomida yirik kompaniya va iqtisodiy tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazishi yaxshi an‘anaga aylangan. Bu galgi tashrif ham Vengriyaning yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuvdan boshlangani bejiz emas.

Sababi, mazkur uchrashuv ramziy ma’noga ega. O‘z navbatida, ularning yurtimizga qiziqishini yanada oshirishga turtki beradi. Chunki Vengriyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyasi jadal o‘sib boryapti. “OTP Bank” O‘zbekistonning yirik banklaridan birini sotib olib, mamlakatimiz moliya bozorida barqaror o‘rin egallagani ham buning yaqqol isboti.

Ikki mamlakatning ko‘p qirrali hamkorligida parlamentlararo aloqalar ham katta o‘rin tutadi. Chunki O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik davlatlarimizning strategik sherikligini mustahkamlash, siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik va gumanitar almashinuvlarning institutsional asoslarini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etayotir.

So‘nggi yillarda ikki mamlakat parlamentlari delegatsiyalarining o‘zaro tashrifi va uchrashuvlari faollashdi. Masalan, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida Milliy majlis spikeri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Qulaylik

Yurtimizda so‘nggi yillarda energiya quvvatlarini oshirishda barcha manbalardan foydalanilmoqda. Shulardan qulay va samaralisi gidroenergetikadir. Undan olinadigan elektr tannarxi nisbatan ancha arzon. Qolaversa, gidroelektr stansiyalar qurilishi nafaqat issiqxona gazlarisiz energiya ishlab chiqarish, balki qishloq xo‘jaligi va aholini obihayot bilan ta‘minlash yo‘lida ham muhim bo‘lgan suv resurslarini samarali boshqarishga ham yo‘l ochadi.



“

Tizimda Germaniyaning Yer tadqiqotlari markazining “Markaziy Osiyoda suv” loyihasi tomonidan hududda suv zaxiralarini aniqlash, uzluksiz kosmik kuzatuvlarga asoslangan suv zaxirasini monitoring qilish “MODSNOW” dasturi joriy etildi. Bu bilan sun‘iy yo‘ldoshdan olingan foto va videosuratlar yordamida matematik hisoblarni amalga oshirish orqali qor zaxirasini katta aniqlik bilan hisoblash imkoni yaratildi.

VAZIYATLAR MARKAZI:

Davlatimiz rahbarining joriy yil 28-martdagi “Respublika hududlarida mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi muhim ishlarga start berdi. Qarorda 2025-2026-yillarda respublika hududida jami quvvati 164 MVt bo‘lgan 2 983 ta mikro GES qurish va yiliga 500 million kVt-soat ekologik toza elektr energiyasini ishlab chiqarish marrasi olingan. Mikro GESlarni ishga tushirish hisobiga 280 ming yurtdoshimizni elektr energiyasi bilan ta‘minlash imkoni paydo bo‘ladi.

Xo‘sh nima uchun “yashil” energiya, xususan, gidroelektr stansiyalarga katta urg‘u berilmoqda? Keling, buni qazilma boyliklar vositasida olinadigan energiya bilan solishtirib ko‘rish orqali oydinlashtiramiz. Ma‘lumotlarga ko‘ra, respublikamizda yil boshidan aprel oyining 13-sanasisigacha barcha gidroelektr stansiyalar va quyosh hamda shamol elektr stansiyalari tomonidan 3 milliard 707 million kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Buning natijasida 1 milliard 112,1 million kub metr tabiiy gaz tejashiga erishildi, atmosferaga 2 million 179 ming 716 tonna karbonat angidrid va 2 ming 179,7 tonna azot oksidi chiqishining oldi olindi. Mazkur hajmdagi elektr energiyasi 4 million 633 ming 750 ta xonadonning 4 oylik yoki 1 million 544,6 mingga xonadonning bir yillik talabini qondiradi. Ko‘rinib turibdiki, bu energiya tejamlilik bilan birga, ekologiya uchun ham foydalidir.

Biroq qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivoji muammolari o‘z-o‘zidan hal qilmaydi. Xususan, GESlar suv resurslari cheklangani va ekologik oqibatlar bilan bog‘liq muammolar olib kelishi mumkin.

Hozirgi davrda har bir tarmoq aniqlikka va realikka tayanadi. Bu elektr energiyasi tizimiga ham taalluqli. Ayniqsa, suv omborlari xavfsizligi elektr energiyasi, qishloq xo‘jaligi, aholi xavfsizligi uchun muhim masala.

Bugungi kunda GESlar, suv omborlari va ulardagi gidrotexnika inshootlari xavfsiz va barqaror ishlashini ta‘minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, nazorat-o‘lchov qurilmalaridan olinayotgan ma‘lumotlarni inson omilisiz avtomatik diagnostika va onlayn monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, “O‘zbekgidroenergo” AJ O‘zbekistonda ilk marotaba AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Italiya, Slovakiya va Xitoyning nufuzli kompaniyalari ijobiy tajribasini o‘rganib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida texnik va tashkiliy uzilishlarni bartaraf etish

hamda axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish yo‘li bilan gidroenergetikada gidrotexnika inshootlarining xavfsiz ishlashini ta‘minlashga qaratilgan axborot tizimlarining yagona majmuasi — Vaziyatlar markazini ishga tushirdi.

— Vaziyatlar markazi AJ boshqaruvidagi suv omborlaridagi suv resurslardan samarali va xavfsiz foydalanish, suv omborlaridagi asosiy ko‘rsatkichlarni onlayn boshqarish, diagnostika qilish masalalarini avtomatlashtirish uchun tashkil etildi, — deydi “O‘zbekgidroenergo” AJ yetakchi mutaxassisi Jahongir Ahrorqulov. — Bu markaz suv omborlaridagi suv resurslari, nazorat o‘lchov qurilmalari hamda gidroelektr stansiyalardagi kunlik elektr quvvatlari ishlab chiqarishni raqamlashtirish, avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

Bunda suv omborini xavfsiz ishlatish joriy etish yo‘li bilan gidroenergetikada gidrotexnika inshootlarining xavfsiz ishlashini ta‘minlashga qaratilgan axborot tizimlarining yagona majmuasi — Vaziyatlar markazini ishga tushirdi.

Bundan tashqari, tizimda Germaniyaning Yer tadqiqotlari markazining “Markaziy Osiyoda suv” loyihasi tomonidan hududda suv zaxiralarini aniqlash, uzluksiz kosmik kuzatuvlarga asoslangan suv zaxirasini monitoring qilish “MODSNOW” dasturi joriy etildi. Bu bilan sun‘iy yo‘ldoshdan olingan foto va videosuratlar yordamida matematik hisoblarni amalga oshirish orqali qor zaxirasini katta aniqlik bilan hisoblash imkoni yaratildi.

Vaziyatlar markazi faoliyati tizimdagi elektr energiyasi ishlab chiqarish, gidrotexnik



XAVFSIZ, TEJAMKOR VA SAMARALI YECHIM

Markaz joylardagi tizimlarning uzluksiz ishlashini ta‘minlab, jamiyat tasarrufidagi jami 6 ta suv ombori hamda 80 tadan ziyod katta va kichik GESni real vaqt rejimida mukammal kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, chuqur o‘rganishlar asosida AJ tasarrufidagi suv omborlari xavfsiz ishlashini ta‘minlab borish maqsadida barcha turdagi nazorat o‘lchov qurilmalariga zamonaviy datchiklar o‘rnatilib, ma‘lumotlarni onlayn tarzda yuqori aniqlikda uzatish, suv omborlari xavfsizlik holatini doimiy monitoring qilish hamda hodisalarni elektron tarzda avtomatik qayd etishga erishildi. Bunda obyektlarga Italiyaning nufuzli “SISGEO” kompaniyasining zamonaviy va yuqori aniqlikdagi jami 1500 ga yaqin qurilma va jihozi (datchiklar) o‘rnatildi.

Bu orqali olinayotgan axborotlarning ishonchiligi va tezkorligi ortib, suv omborlaridagi gidrotexnika inshootlari uchun ishlab chiqilgan miqdor va sifat tashxis ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq xavfsizlik mezonlarini inson omilisiz onlayn tarzda nazorat qilish, baholash, ularni operativ tahlil qilish va tegishli chora-tadbirlarni belgilash imkoniyati yaratildi.

Amalga oshirilgan barcha raqamlashtirish va avtomatlashtirish chora-tadbirlari asosida respublikamizda birinchi marotaba mahalliy mutaxassislarni jalb etgan holda suv omborlari uchun xavfsizlik mezonlari ishlab chiqildi.

inshootlar barqarorligi va xavfsizligini ishonchli ta‘minlash, inshootlar umumiy ekspluatatsiyasidagi barcha texnologik va texnogen vaziyatlarni doimiy kuzatib borish, markazlashgan ASKUE tizimi bilan integratsiya qilish, GESlar va suv omborlarida o‘rnatilgan zamonaviy dasturiy texnologiyalar, ilg‘or asbob-uskunalar va nazorat-o‘lchash qurilmalari orqali avtomatik ravishda tizimli monitoringni olib borishga mo‘ljallangan.

— GESlarning elektr hisoblagichlaridagi ma‘lumotlarni Vaziyatlar markaziga uzatish belgilangan edi. Hozir 550 ta elektr hisoblagich almashtirilib, markaz bilan integratsiya qilinib, shu yerdan kuzatib turish imkoni yaratildi. Oldin bu ishlar qo‘lda bajarilardi, — deydi “O‘zbekgidroenergo” AJ yetakchi mutaxassisi Sherzod Jalilov.

Ajning raqamli transformatsiya dasturi doirasida markazdagi ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash, xavfsiz aloqa tizimini joriy etish, turli zararli dasturlardan himoya qilish bo‘yicha korporativ tarmoq yaratildi. Jamiyat binosida ma‘lumotlarni qayta ishlovchi markaz faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tizimdagi barcha GES va suv omborlarida markazlashgan IP telefoniya tizimi foydalanishga topshirildi.

Zamon talabidan kelib chiqib, tizim korxonalarida intellektual videokuzatuv

tizimlari o‘rnatildi. Barcha korxonalar mingdan ortiq yangi avlod kamerasi bilan jihozlanib, Vaziyatlar markaziga ma‘lumotlar to‘g‘ridan to‘g‘ri onlayn uzatib borilishi ta‘minlandi.

Qolaversa, biror axborot tizimida nosozlik, texnik uzilish yuzaga kelsa, uni markaz orqali tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Ya‘ni Vaziyatlar markazi tashkil etilishi bilan gidroenergetika sohasidagi barcha axborot tizimlarini yagona majmua orqali nazorat qilish mexanizmi yaratildi.

“O‘zbekgidroenergo” AJ Suv omborlaridan samarali va xavfsiz foydalanish boshqarmasi boshlig‘i Mavlonjon Fozilovning so‘zlariga ko‘ra, endilikda suv omborlarining xavfsizlik darajasi inson omilisiz belgilab boriladi. Suv sathi, omborga quyilayotgan va chiqayotgan suv miqdorini nazorat qilish mumkin. Shuningdek, hududning qor bilan qoplanganlik darajasi, filtratsiya jarayonlari, seysmologiya, “O‘zbekkosmos” ma‘lumotlari hamda hududdagi faktik ob-havo ma‘lumotlari olinadi. Buning uchun jamiyatga qarashli har bir suv omboriga meteorologik stansiyalar o‘rnatilgan. Ulardan olingan ma‘lumotlar real vaqt rejimida ko‘rinib turadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



UCHINCHI VA KEYINGI TO‘LOV BEPUL

ENDI NAVOIY SHAHRIDA HAM JAMOAT TRANSPORTI QATNAYAPTI

Yaqinda xizmat safaridan qaytgan Karimjon dam olish kunlarini o‘tkazib, erta tongdan ishga otlandi. Navoiy shahrida jamoat transporti yo‘qligi tufayli har kuni ishga taksida qatnaydi. Maoshining chorak qismi asosan, yo‘lkira uchun sarflanadi.

U taksiga qo‘l ko‘tarishga chog‘langan edi hamki yonginasiga avtobus kelib to‘xtadi. Odatda shaharda yirik korxona va tashkilotlarning ishchi-xodimlariga mo‘ljallangan maxsus avtobuslar harakatlangani uchun e‘tibor bermadi.

— Yo‘l bo‘lsin! Haydovchining ovozi xayolini bo‘ldi. Karimjon ikkilanib borar manzilini aytdi.

— Keling, biz siz aytgan joydan o‘tamiz. Yo‘nalishimiz shunday, — dedi haydovchi va Karimjonning hayron bo‘lib turganini ko‘rib yana so‘zida davom etdi: — Shahrimiz aholisi uchun jamoat transporti qatnovi yo‘lga qo‘yilganini eshitmagan ko‘rinasi. Bu zamonaviy avtobuslar endi shahar bo‘ylab yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadi.

Haqiqatan, Karimjon bu yangilikdan bexabar edi. Avtobusga chiqib, yo‘lovchilar uchun yaratilgan sharoitlardan, ayniqsa, yo‘l haqi hamyonbopligidan mamnun bo‘ldi. Qolaversa, avtobus yo‘nalishi ishxonasi oldidan o‘tishi uning uchun ayni muddao edi.

Navoiy viloyati mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan hududlardir. Ayniqsa, viloyat markazi — Navoiy shahri yildan yilga ko‘rkam qiyofa kasb etib, bunyodkorlik maydoniga aylangan. Qolaversa, so‘nggi yillarda shahar hududi yanada kengaydi. Ammo shaharda jamoat transporti yo‘qligi necha yillardan buyon hal etilmayotgan masalalardan biri bo‘lib qolayotgandi. Ushbu muammo shahar aholisi va mehmonlarga qator qiyinchiliklar tug‘diraydigan.

Jumladan, shaharda jamoat transporti yo‘qligi sababli yo‘lovchi taksi xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan va ularning yo‘lkirasi aholi



— Avtobuslar qatnovidan odamlar juda xursand, — deydi haydovchi Furqat Azimov. — Ularga xizmat qilyotganimizdan biz ham mamnumiz. Avtobuslar zamonaviy, yo‘lovchilar uchun barcha qulaylik yaratilgan. Yo‘l haqi ham arzon. Navoiy shahrida ancha yildan buyon jamoat transporti yo‘qligi aholining asosiy muammolardan biri edi. Bu masala hal etilganidan, shunday muhim voqeaning ishtirokchisi bo‘lib, xalqqa xizmat qilyotganimdan xursandman. Asosiy maqsadimiz — yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatib, manziliga salomat yetkazish.

Navoiy viloyati markazida harakatlan boshlagan avtobuslarda yo‘lovchilarga yangilik yaratish maqsadida zamonaviy elektron to‘lov tizimini o‘rnatish, yo‘l haqini bank plastik kartalari va jamoat transporti kartalari orqali (1600 so‘m) hamda naqd (2000 so‘m) ko‘rinishda to‘lash bo‘yicha viloyat hokimi qarori chiqdi. Unga ko‘ra, bir yo‘lovchi uchun bir soat ichida birinchi yo‘lkira 1600 so‘m, ikkinchisi 1000 so‘m, uchinchi va keyingi to‘lov bepul bo‘lishi belgilangan. Natijada



uchun bir necha barobar qimmatga tushayotgani ham bor gap. Ushbu muammoga barham berish uchun izchil amaliy harakatlar qilindi. Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi “Hududlarda jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Navoiy viloyatida jamoat transporti qatnovini tubdan yaxshilash maqsadida Navoiy shahriga 60 ta avtobus olib kelish bo‘yicha chet el kompaniyalari bilan shartnoma imzolandi. Ayni vaqtgacha avtobuslarning 18 tasi shaharga keltirilib, qatnovga qo‘yildi. Bu sa‘y-harakatlar tufayli viloyat aholisining uzoq yillik orzusi amalga oshdi. Joriy yil apreldan Karmana tumanidagi avtobohabekda avtobuslarning shahar bo‘ylab belgilangan yo‘nalishlarda harakatlanishiga start berildi.

— Bugun “Axmedov Grand group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 12 ta hamda “Navoiy Transport Ekspeditorlik” korxonasi tomonidan 6 ta zamonaviy avtobus xalqimiz uchun xizmat ko‘rsatishga yo‘l oldi, — deydi Navoiy viloyati transport boshqarmasi boshlig‘i Bekzod Rahimov. — Bu xushxabar viloyatimiz aholisi tomonidan xursandchilik bilan kutib olindi. Haydovchilarga avtobuslar kaliti tantanali topshirildi. Ular yaxshi kayfiyatda o‘z ish tartibi bo‘yicha yo‘nalishlarda ish boshladi. Hududda jamoat transportini yo‘lga qo‘yish, tizimini takomillashtirish va odamlarning uzog‘ini yaqin qilib, qulayliklar yaratish ishlari davom etmoqda.

Birinchi bosqichda avtobuslar “Navoiy avtovokzali — viloyat avtoyo‘li boshqarmasi” va “Tinchlik qo‘rg‘oni — Malika avtotransiyasi” yo‘nalishlari bo‘ylab harakatlanadi hamda bir kunda 10 mingga yaqin yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadi.

shahar aholisining jamoat transportidan foydalanish darajasi o‘rtacha 19 foizdan 70 foizga qiyqaziladi. Avtobuslar qatnov oraliq‘i 25-30 daqiqadan 8-10 daqiqaga qisqartiriladi.

— Uzoq yildan buyon Navoiy shahrida yashayman, — deydi mehnat faxriysi Totliboy Oqbo‘tayeov. — Shaharda jamoat transporti yo‘qligi tufayli taksi xizmatidan foydalanishga majbur edik. Taksida bir joyga borish 5000 so‘m bo‘lsa, yumushingiz bitgunicha uch-to‘rt manzilga borsangiz, 15-20 ming so‘m to‘lashga to‘g‘ri kelardi. Yo‘lovchilarda boshqa tanlov ham yo‘q edi. Bu, albatta, aholi uchun qiyinchilik tug‘dirardi. Uzoq yillik muammoga barham berilgani biz, nuroniyalarni ham xursand qildi. Barcha shaharda jamoat transporti bor, lekin nega Navoiy shahrida yo‘q, degan savol barchamizning yuragimizda tugun bo‘lib turardi. Endi aholi oldida tanlov bor. Qurbi yetgan taksi xizmatidan foydalanaveradi.

Ayni vaqtda avtobuslarning muntazam harakatlanishi, tozaligi, qish kunlari isitish tizimi, yoz kunlari sovitish tizimi bunegush ishlashi, haydovchilarning kiyinish va muomala madaniyatini nazorat qilish uchun Navoiy viloyati transport boshqarmasida markazlashgan dispetcherlik markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, avtobuslar harakatiga qulaylik yaratish maqsadida Navoiy shahrida Islom Karimov, Amir Temur, Me‘morlar va G‘alaba ko‘chalarida jami 7 kilometrlik alohida avtobus yo‘laklari tashkil etiladi.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munosabat



Sevara FAYZIYEVA,
xalq deputatlari Toshkent shahri kengashi deputati

Qarorda nafaqat strategik yo‘nalishlar, balki har bir fuqaroning hayotiga ta‘sir etuvchi amaliy chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, ushbu konsepsiya mamlakatning barqaror rivojlanishi, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, aholida atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish, tabiat oldidagi mas‘uliyatni oshirishga qaratilgan.

Ekologik madaniyatni oshirishdagi eng katta amaliy tashabbuslardan biri “Yashil makon” umummilliy loyihasidir. Mazkur tashabbus doirasida har yili millionlab tup daraxt va buta ko‘chati ekilib, shahar va qishloqlar ko‘kalamzor hududlarga aylantirilmoqda. Bu nafaqat havoni tozalash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, balki aholida ekologik madaniyatni shakllantirishda ham muhim.

Maxsus uyushtirilgan hasharlar, maktab va oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkazilayotgan ko‘chat ekish aksiyalari yosh avlodni atrof-muhitga mas‘ul bo‘lishga undamoqda. Bu jarayonda aholining barcha qatlami birdek ishtirok etayotir.



Shahar va qishloqlarda chiqindi bilan bog‘liq masalalar yillar davomida faqat sanitariya nuqtayi nazaridan ko‘rilgan. Endi yondashuv o‘zgarmoqda. Konsepsiyadagi muhim yo‘nalishlardan yana biri mahallalarni chiqindidan tozalash va muntazam nazorat qilish tizimini yaratishdir.

Bu yo‘nalishda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari keng jalb etilib, aholi o‘rtasida chiqindisiz hayot tarzini targ‘ib qiluvchi aksiya va o‘quv seminarlari o‘tkaziladi. Demak,

fuqarolar chiqindini saralash, qayta ishlash va ekologik tozalikni saqlash madaniyatini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ekologik madaniyatni yuksaltirishda yoshlarning ishtiroki alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalari talabalari tomonidan tashkil etiladigan ekovolontyorlik harakati bu boradagi ishlarda muhim bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

Ekovolontyorlar faoliyati doirasida daraxt ekish, tozalik aksiyalari, ekologik fleshmoblar o‘tkaziladi va aholi orasida sohaga oid foydali

ma‘lumotlar tarqatiladi. Bu harakat nafaqat talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi, balki butun jamiyatni ijobiy o‘zgarishlar sari yetaklaydi.

Konsepsiya doirasidagi har bir amaliy harakat ortida muayyan darajada siyosiy iroda yotadi. Mana shunday siyosiy kuchlardan biri O‘zbekiston Ekologik partiyasidir. Partiya faol-lari konsepsiya doirasidagi barcha tashabbus va islohotlarda faol ishtirok etadi. Jumladan, ular sa‘y-harakat bilan qonunchilik tashabbuslari, jamoatchilik nazorati va aholini ekologik huquqiy bilimlar bilan ta‘minlash bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqiladi.

Ko‘plab hududlarda ekologik sessiyalar, jamoat eshituvlari o‘tkaziladi, “ekologik mahalla” va “yashil o‘rtoliq” kabi dasturlar joriy etiladi. Bu orqali aholining ekologik masalalarga munosabatini yanada faollashtirish mumkin.

2030-yilgacha aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan konsepsiya O‘zbekistonning barqaror ekologik kelajagini yaratishga qaratilgan dasturiy hujjatdir. Agar bugun har birimiz kamida bir tup daraxt eksak, chiqindini saralash, farzandlarimizni tabiatni sevishga o‘rgatsak, demak, bu konsepsiya qog‘ozda emas, amaldagi samarali normativ hujjatga aylanadi.

Pirovard natijada “Yashil makon” loyihasi, ekovolontyorlar harakati va mahallalardagi amaliy tadbirlar atrof-muhitni yaxshilash bilan birga butun jamiyat ongini o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizda isloh etilmayotgan tizim, e’tibor qaratilmagan soha yo’q. Ayniqsa, yoshlar masalasi doimiy diqqat markazida bo’lib, davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Farzandlarimiz kamoli, ma’naviy yetuk, jismonan baquvvat bo’lib ulg’ayishi, iste’dodi va intellektual salohiyati yuzaga chiqishi, zamonaviy kasb egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Zero, zamon talabi — yoshlar bilan ertaga emas, bugun va hozir ishlash shart!

Taraqqiyotni belgilovchi asosiy kuch yuqori malakali kadrlardir. Bunday mutaxassislarni yetishtirish uchun esa ta’lim tizimi yaxshi ishlashi shart. Keling, tasavvurimizni oydinlashtirib olish uchun Farg’ona davlat universitetining bugungi faoliyatiga bir qur nazar tashlasak. Asrga tengdosh bo’lgan yirik ilm dargohi o’tgan davr ichida qanday o’zgarish va islohotlarga guvoh bo’ldi?

Universitetning bugungi faoliyati, oldiga qo’yilgan reja va maqsadlar yangi O’zbekistonning imkoniyatlari, yangi avlod kadrlar tarbiyalash borasidagi prinsiplarga uyg’undir. Xususan, oliygohning bakalavriat, magistratura bosqichlari hamda sirtqi ta’lim bo’limida 30 mingdan ortiq talabaga ta’lim berayotgan 900 ga yaqin tajribali va yuqori salohiyatli professor-o’qituvchining sa’y-harakatlari yangicha dunyoqarash va tafakkur egalarini, malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Kafedralarda iqtidorli talabalar bilan “ustoz-shogird” tizimi asosida yo’lga qo’yilgan namunali faoliyat natijasida ilm-fan bilan shug’ullanayotgan yoshlar safi kengaymoqda. Talabalar turli stipendiya, xalqaro va mahalliy fan olimpiadalari, tanlovlar hamda sport musobaqalarida yuqori o’rinlarni egallab, o’qituvchi va murabbiylari ishonchini oqlayotir. Universitetda talabalarning o’qishi va olgan bilimni amaliyotda qo’llashi uchun zarur shart-sharoit yaratib berilmoqda.

Reyting — faoliyat ko’zgusi, xalqaro hamkorlik rivoji esa e’tirofdir

So’nggi yillarda mamlakat oliy ta’lim muassasalari orasida FarDuning nufuzi oshib, mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda. Bunda yurtimizdagi keng ko’lamli islohotlar muhim omil, albatta. Sohadagi o’zgarishlar natijasida bugun yoshlarni oliy ta’limga qamrab olish darajasi 42 foiz ortdi. Oliy ta’lim muassasalari soni ayni paytda 220 dan oshdi, 70 ga yaqin nodavlat oliy ta’lim muassasasi ochildi.

QS “Fan sohalari reytingi”da 2 ta oliygoh “Top-500”, “QS Osiyo universitetlari reytingi — 2024”da 14 ta oliygoh “Top-1000”, “QS Sustainability Rankings — 2024”da 3 ta oliygoh “Top-1000” universitetlar ro’yxatiga kiritildi.

Ayniqsa, FarDuning yaqin 4 yillik faoliyatini kuzatib, xalqaro reytinglarda egallagan muvaffaqiyatlari yuqorilab borayotganiga, hatto ular sensatsion natijalar sifatida e’tirof etilayotganiga guvoh bo’ldik.

— Dunyoning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalari va reyting tashkilotlari bilan aloqalarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratyapmiz, — deydi FarDU rektori, pedagogika fanlari doktori, professor Bahodirjon Shermuhammadov. — O’tgan yillarda Avstraliyaning “UniRank” reyting platformasida mahalliy miqyosda 23-o’rinni band etdik. Gruziyaning xalqaro universitetlar

olib kelingan texnik jihozlar tavsifi, xalqaro qazuv ekspeditsiyasini tashkil etish, xalqaro 15 talabasini o’quv stajirovkasiga yuborish kabi muhim masalalar muvofaqat qildi.

Loyanglik yirik tadbirkor, “CNNC Henan Energy Co., Ltd” kompaniyasi direktori Xue Haiyang bilan ham muzokaralar o’tkazilib, investor tomonidan FarDuga Xitoyning ishlab chiqarish bilan bog’lik investitsiyalarini kiritish masalalari muvofaqat qildi.

Yana shu kunning o’zida universitet rahbariyati dunyoning eng nufuzli ARWU

reyting tashkiloti — “Round University Ranking” reytingida o’qitish indikatori bo’yicha 883-o’rinda qayd etildik. Bunda oliygoh sifatli ta’lim mezonini bo’yicha alohida o’rin tutadi.

Shuningdek, Kanadaning Xalqaro yutuqlar tadqiqot markazi — IARS reytingida universitet “Yil universiteti — 2023” xalqaro tanlovi g’olibi bo’ldi. Indoneziyaning “UI Green Metric World University Ranking” xalqaro reytingida barqaror rivojlanayotgan universitet sifatida dunyo oliygohlari ichida 738-o’rinni, Turkiyaning HE — “Higher Education” xalqaro reytingida esa 3-o’rinni egalladi.

Mazkur muvaffaqiyatlarni nafaqat Farg’ona davlat universiteti, balki butun O’zbekiston ta’lim tizimi tarixida muhim voqea deysish mumkin. Bu mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari jahon standartlariga javob bera olishining yaqqol isboti bo’lmoqda. Ya’ni milliy ta’lim tizimimiz dunyoda tan olinaypti, hamkorlik avvalgidek faqat xorij tomonning emas, o’zaro manfaatga asoslangan teng asnoda kechyapti.

Shu ma’noda, universitetda xalqaro hamkorlik masalasi qanday yo’lga qo’yilgani mavzusiga ham qisqacha to’xtalib o’tsak. Har hafta ta’lim muassasasi bilan hamkorlikka peshvoz chiquvchilar bilan uchrashuvlar naqd. Masalan, biz bu yerda bo’lishimiz Loyang arxeologik tadqiqotlar instituti delegatsiyasining tashrifi onlariga to’g’ri kelib qoldi.

FarDuning ishonchli hamkori hisoblangan Loyang arxeologik tadqiqotlar instituti delegatsiyasi 10 nafar arxeolog mutaxassisidan iborat ekan. Ular may-iyun oylarida Quva shahristoni yodgorligida FarDU olimlari va tadqiqotchi-talabalari ishtirokida xalqaro ilmiy qazuv ekspeditsiyasida ishtirok etadi.

Bu safargi tashrif doirasida Loyang arxeologik tadqiqotlar instituti tomonidan O’zbekiston — Xitoy arxeologiya qo’shma kafedrasida huzuridagi ilmiy laboratoriya uchun

Iqtidorli talaba — ustozlar faxri

Ta’lim dargohida ilm olayotgan ko’plab yoshlar qo’lga kiritayotgan yutuqlar, fan olimpiadalardagi muvaffaqiyatlar, turli nufuzli stipendiya sohibiga aylanishi ortida fidoyi ustozlar, pedagogik jamoa mehnati mujassam, albatta. Bu kabi natijalar, zamonaviy tilda aytganda, atrofdegilarga motivatsiya beradi. FarDU faxriga aylanayotgan ilg’or talabalar soni ko’payib, ularning ilmiy izlanishlari ahamiyati tobora ortib borayotgani esa kishini quvontiradi.

— Bugun IT parklar qatorida kreativ parklar, yoshlar sayilgohlari, ijod ko’chalari, oliy o’quv yurtlarida sport ligalari, qovorking va teatr studiyalari bizning ixtiyorimizda, — deydi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibi Fayzullo Sayramov. — Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga yoshlarning haq-huquqlarini muhofaza etish, jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash, sifatli ta’lim olishi, ijtimoiy va tibbiy xizmatlardan foydalanishi, uy-joyli, ishlari bo’lishi uchun zarur shart-sharoit yaratishga doir normalar kiritilgani nihoyatda katta voqeadir. Davlat bu orqali o’z zimmasiga muhim majburiyatlarni olmoqda.

Ularining hayotimizda tasdiq’ini topishi nafaqat biz yoshlar manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun g’oyat muhim.

— Biz, yoshlarning dunyoqarashimiz o’zgariyapti, tafakkurimiz o’syapti, — deydi

Ulug’bek nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi Anna Bogdan. — Shunday bo’lishi ham kerak-da. Axir dunyoning ertasi, taqdiri yoshlar qo’lida. Davlatimiz rahbari “Yoshlar kelajagi bilan bog’liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega”, deb bejiz ta’kidlamaydi. Bu yondashuv “O’zbekiston — 2030” strategiyasida ham aksini topgan. Misol uchun, ushbu muhim hujjatning “Har bir insonga o’z salohiyatini ro’yogga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan birinchi yo’nalishi 44 banddan iborat bo’lsa, shuning 25 dan ortig’i bevosita yoshlar manfaatlariga qaratilgan.

Darhaqiqat, ko’rsatilayotgan doimiy e’tibor va g’amxo’rlik yosh avlod zimmasiga zalvorli mas’uliyat yuklaydi, yoshlarimizdan xalqimiz oldida turgan yuksak maqsadlarga erishishda yanada faollik ko’rsatishni talab etadi.



— 30-iyun mamlakatimizda Yoshlar kuni deb e’lon qilingani ham keyingi davrda yurtimizda yoshlarning hayotida o’z o’rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, har tomonlama qo’llab-quvvatlash, kasbga yo’naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag’batlantirishga katta e’tibor qaratilayotganini yaqqol tasdiqlaydi, — deydi FarDU rektori stipendiyasi sohibasi Durdona Mo’ydinova. — Bugun biz ilm olayotgan ta’lim muassasasining ilmiy salohiyati uncha-buncha qarabotdan qo’rqmaydigan darajaga chiqqani bilan faxrlanamiz. Bunga jonkuyar ustozlarimiz, bu yerda yaratib berilgan sharoitlar muhim omil bo’laypti.

Universitetda muntazam faoliyat yuritib kelayotgan “Nilufar” talabalar teatr studiyasi, yosh talabalar mediaguruhi, “Zakovat” intellektual klubi, “Inspire-U Academy” xorijiy tillar o’quv markazi, yosh suxandonlar, kitobxonlar, aktyorlar, dasturchilar, rassomlar, tarjimonlar markazlari, “FarDU ekovolontyorlari” ko’ngilli guruhi, “Bolajon” innovatsion tajriba markazi, Gender tenglik tadqiqotlari markazi, sport majmuasi tarkibidagi professional futbol klubi, shaxmat, shashka, kurash, yengil atletika, suzish kabi to’garaklar yuzlab yigit-qizlarning o’z salohiyat va iqtidorini namoyish etishi uchun xizmat qilmoqda.

Sport — muassasa hayotining ajralmas qismi

Darvoqe, sport va jismoniy tarbiya mavzusiga alohida to’xtalib o’tmasak bo’lmaydi. Negaki, mamlakatimizda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, sog’lom turmush tarzini targ’ib etish borasidagi sa’y-harakatlarga “labbay” deb javob berayotgan universitetning

natijalar bugun nafaqat muxlislar, balki sport mutaxassislarning ham e’tirofiga sazovor bo’lmoqda. Ayniqsa, millionlar o’yini bo’lgan futbol jamoasi erishayotgan yutuqlar kishini hayratlantiradi. Bu natijalar aksariyat jamoalar uchun orzu.

sportchilari va sport jamoalari erishayotgan natijalar bugun nafaqat muxlislar, balki sport mutaxassislarning ham e’tirofiga sazovor bo’lmoqda. Ayniqsa, millionlar o’yini bo’lgan futbol jamoasi erishayotgan yutuqlar kishini hayratlantiradi. Bu natijalar aksariyat jamoalar uchun orzu.

Universitet jamoasi misolida ko’rish mumkinki, mamlakatda har tomonlama yetuk hamda jismonan sog’lom insonni shakllantirish, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish o’z mevasini berishda davom etmoqda. Boshqacha aytganda, jahon tajribasida mavjud bo’lgan universitet sport jamoalarining yuksak nufuzi ta’minlanmoqda.

“FarDU” futbol jamoasi o’zbek futbolining afsonasi, 5 karra O’zbekiston chempioni, 2 karra mamlakat kubogi sohibi, 1994-yilgi Osiyo o’yinlari chempioni, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan sportchi Sergey Lebedov murabbiyligida yangi-yangi maramlarni zab etmoqda.

Qisqa muddat ichida “FarDU” katta maydonda o’zini ko’rsatib, O’zPFL tasnifida o’tadigan professional futbol chempionatiga yo’llanmani qo’lga kiritdi. Bu natijadan Farg’ona davlat universiteti jamoasi va talaba yoshlarining quvonchlarini tasavvur qilish qiyin emas. Chunki ikki yuzga yaqin oliy ta’lim muassasasi ichida “FarDU” futbol jamoasining Birinchi liga yo’llanmasiga ega chiqishi muhim tarixiy voqeelik edi.

Futbol universiteti faxrlanishi mumkin bo’lgan yagona sport turi emas. Sportning boshqa turlari bo’yicha ham havas qilgulik natijalar juda ko’p. Bundan tashqari, xotin-qizlar sportini rivojlantirish, ularni sportga ommaviy jalb qilish masalasi ham doimiy e’tibordir. Universitet sportchi qizlarining nomini bugun ko’pchilik muxlislar yaxshi biladi. Ular erishayotgan natijalar, qo’lga kiritayotgan yutuqlar haqida bitta maqolada hikoya qilishning imkoni yo’q.

— Sport bizning jonli dilimiz, — deydi belbog’li kurash bo’yicha jahon birinchiligi sovrindori Diyorbek Polvonboyev. — Mamlakatimizda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida katta ishlar amalga oshirilyapti. Bu FarDU talabalarini sportga keng ko’lamda jalb etish, sportning ommaviylikni oshirish borasida yo’lga qo’yilgan istiqbolli loyihalarda ham aks etmoqda.

Talaba yoshlarning ommaviy sportga qiziqishini yanada oshirish yo’lidagi ishlar natijasida universitetdan nayza uloqtirish bo’yicha Paralimpiada oltin medali sohibi Yorginbek Odilov, Chernogoriyada boks bo’yicha o’tkazilgan jahon chempionatida

3-o’rinni egallagan Oysha Toirova, ctol tennisi bo’yicha universiyada musobaqalarining respublika final bosqichi sovrindori Shoira Qodirova va boshqa ko’plab chempion talabalar yetishib chiqdi. Bugungi kunda viloyatdagi sport maktablari va oliygohning chempionlikni ko’zlagan ko’plab yoshlari ushbu talabalar mahoratini “ustoz-shogird” yo’nalishida birga o’zlashtirib bormoqda.

Mamlakatimizda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholining jismoniy faolligini oshirish borasidagi islohotlar natijasida shu o’zgarishlardan bahramand bo’lib ulg’ayayotgan yoshlarimiz jahon arenalarida munosib o’rin egallamoqda, yurtimiz bayrog’ini dunyo uzra baland ko’tarmoqda. Chunki yoshlarimizdagi sportga qiziqish doimo qo’llab-quvvatlanmoqda va sport sohasini dunyo miqyosida rivojlantirish masalalariga birinchi galdagi vazifa sifatida e’tibor qaratilmoqda.

Bir jamoada, bir safda

Farg’ona tumanining Oqbiol, Do’slik mavzelari hududida oliygohga ajratilgan dasht va toshloq yerlar o’zlashtirilib, yoshlarning bilim va ko’nikmasini amalda mustahkamlashi uchun o’quv-tajriba uchastkalari sifatida tashkil qilingan. Ayni vaqtda agrouchastkalarda chorvachilik, asalarichilik, gulchilik, anorchilik, bog’dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik hamda biogumus tayyorlash yo’lga qo’yilgan. Bu tarmoqlarda ishlayotganlar safida ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar ham bor.

Farg’ona davlat universitetida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va to’liq davlat ta’minotida bo’lgan, chin yetim talabalar ham tahsil oladi. Ular har oyda moddiy rag’batlantirilib, zarur adabiyotlar, ehtiyoji uchun kerakli vositalar bilan ta’minlanmoqda. Shuningdek, nogironlari bo’lgan hamda “Temir daftarga kiritilgan oilalarning farzandlari bo’lmish talabalarga moddiy yordam ko’rsatib kelinadi.

Universitetda bakalavriatning kunduzgi ta’lim shaklida davlat granti yoki to’lov-kontrakt asosida a’lo baholarga o’qiyotgan hamda “ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oila sifatida e’tirof etilgan xonadonlarning talaba qizlariga umumiy shartlarda beriladigan stipendiya saqlab qolingan holda qo’shimcha tarzda bazaviy stipendiyaniyning bir barobari miqdorida oyma-o’y beriladigan maxsus stipendiya ta’sis etilgan.

Shuningdek, fan olimpiadalari, ko’rik-tanlov va turli sport musobaqalarida g’oliblikni qo’lga kiritgan talaba qizlar bazaviy stipendiyaning 5 barobari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan rag’batlantiriladi. Bugungi talaba nafaqat mutaxassis, balki iqtidor, iste’dod, kerakli hunar egasi hamdir. U o’z qiziqishini namoyon qilishni, yuqori maramlarni egallashni va erkin ijod bilan shug’ullanishni istashi tabiiy.

Yaqin istiqbolida bugungi yosh avlod davlat va jamiyat boshqaruvida hal qiluvchi kuchga ega bo’lishini tasavvur qilsak, yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan shug’ullinish, muammolarini vaqtda hal etib, shaxs sifatida rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, professional kasb mahoratini shakllantirish kabi vazifalar nihoyatda dolzarb ekanini yanada oydinlashadi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri
Toshkent — Farg’ona

Bir hunarning etagidan tutaman, nonimni butun qilaman, degan yoshlar 9-sinfni tamomlab ham durustgina mutaxassis bo’la oladi. Ular texnikum, kolleja shunchaki borib kelmaydi. Na bilim, na hunar olmay, umrini zoye o’tkazayotgan ayrim tengdoshlariga bundaylarni ibrat qilsang arziydi.

Bulung’urlik Muhriddin Abdusattorov ham shu toifadagi yoshlardan. Yaxshigina hunar egasi. Samarqand tumanidagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kollejda hunar o’rganib, avvaliga o’z ehtiyoji uchun maxsus poyabzallar tayyorlab yurdi. Keyinchalik oyog’ida nuqsoni bo’lgan kumandoshlariga ham murakkab turdagi oyog’ kiyimlar ishlab chiqarishni maqsad qildi. Bundan 4 yil avval o’zi yashaydigan mahalla hududida ustaxona ochib, mustaqil ravishda poyabzal ta’mirlash va ishlab chiqarishni

boshladi. Bu esa uning hozirgi “Ortopedik shoes sifat” mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil bo’lishiga zamin yaratdi.

— Ikkinchi guruh nogironiman. Og’ir yuk ko’tarish, ko’p yurish mumkin emasligi bois, o’tirib ishlash bo’ladigan shu hunarni tanladim. Kollejda olgan boshlang’ich bilim va ko’nikmalarim bilan Samarqand shahridagi ayrim xususiy korxonalarda malaka oshirdim. Ish o’rganish davrida ham oylik maosh oldim. Buning uchun o’sha korxonalar rahbarlariga rahmat aytaman.

Qahramonimiz imkoniyati cheklangan shaxslarning oyog’iga mos poyabzal tayyorlab, ularga qulaylik yaratayotganidan zavqlanadi. Chunki risoladagidek yura olmaslikning mashaqqatini u yaxshi biladi. Bir oyog’i rivojlanmay qolgan mijozlar bo’ladi. Undaylarga bir poyi baland, biri past taglikli poyabzal kerak.

O’lchamini olib, ishga kirishadi. Bunday oyoq kiyimda ular ham sog’lom insonlardek yurishi mumkin. Hech qachon nolmaydi. Oyiaga 4-5 million so’m daromadi bor. Ehtiyojlariga yetib turibdi. Buyog’iga daromadi ko’payishi uchun tumanidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi yaqindan yordam berayotganidan xursand.

Bulung’ur tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi nogironligi bo’lgan shaxslar bilan ishlash bo’limi rahbari Rustam Arslonov bilan suhbatlashganimizda, nogironligi bo’lgan shaxslarni maxsus poyabzallar bilan ta’minlashda “Ortopedik shoes sifat” MCHJ muhim o’rin tutishini aytdi. Ko’pchilik bu yerga kelib, buyurtma berib ketadi.

— Nogironlarni protez ortopediya mahsulotlari hamda reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash onlayn vaucher tizimiga o’tkazilgan. Bu tizimda Ijtimoiy himoya milliy agentligining



maxsus platformasi yaratilgan. Platformada tadbirkorlar tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar ro’yxatdan o’tkaziladi. Bu orqali respublika bo’yicha nogironligi bo’lgan shaxslar

uydan turib, o’zlariga kerakli mahsulotlarni telefoni yoki mahallaga biriktirilgan ijtimoiy xodimning plansheti yordamida tanlab oladi. Muhriddin Abdusattorovning murakkab turdagi

Munojat MO’MINOVA,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

Bolalik kunlarimdan unutilmas xotira bo'lib dil tubiga cho'kkan quvonch lahzalaridan biri uyimizga patefon kelgani edi. Hozirda muzeylarda turadigan bu ibtidoiy texnika vositasi o'sha zamonning mo'jizasi edi. Esimdan chiqmaydi: qari buvim yoqa ushlab hayratlanar, "Tavba-tavba, qora lappakdan ovoz chiqadi-ya, buning ichiga ajina kirib olgan" derdi. Avval boshda eshitishga qo'rqib yurgan, keyin o'rganib, patefondan nari ketmay qolgandi. Halima Nosirova qo'shiq aytsa, avj pardalariga yetganda, "Bay-bay-bay, men ashulani bunaqa aytolmayman" deya hammamizni kuldirar edi.



O'sha patefondan eshitgan qo'shiqlarim hamon qulog'imdan ketmaydi. Lutfixonim Sarimsoqova maromiga yetkazib aytgan katta ashulani unutmayman: **Xulqi xush yo'q sen kabi jonona, aynalsin quling.** Qo'shiq aynan shunday aytilgan edi. **Aylansin** emas, **aynalsin** quling! Farg'onada aynalay degan so'zni har kun eshitganim uchun menga u erish tuyulmagan. Aksincha, Toshkentga kelib, ayollarning **aylanay** degani meni hayron qilgan edi. Keyincha Furqatning o'sha g'azalini topib o'qiganimda, yana ajablandim. Bu so'z hozirgi imlo qoidasiga ko'ra, **aylansin quling** tarzida yozilgan. Lekin qo'qonlik Furqat o'zi qanday yozgan va aslida qaysi shakli to'g'ri? Ogahiyning bir g'azali shunday boshlanadi: *Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lib boshingdan aylansin, Yangi oy yuz tavoze ko'rguzib qoshingdan aylansin.* Mumtoz she'riyatimizning nodir namunasi bo'lgan bu g'azalini ko'p hozirlarimiz turli ohangda ijro etganlar. Toshkentlik Orif Alimaxsumov **aylansin** deb aytgan bo'lsa, farg'onalik Alijon Erkayev **aynalsin** shaklida ijro etgan. Yana savol: qay biri to'g'ri? Qozoqlar **aynalayin** deyildilar. Biz turli shevalarda turlicha aytamiz. Buxoroda

sulamak deyildilar. Shoir Yusuf Saryomiyning vatani Turkiston yaqinidagi **Saryom Sayramga** aylandi. Turk qardoshlarimiz **ko'rsatishni ko'starish (go'starish)** deb olganlar. Biz esa **o'grotishni o'rgatish** deb yubordik, ular **o'gratish** deyildilar. Tilimizda **o'rgilay** degan so'z bor. **Aylanay** ma'nosida. Lekin aslida **o'grilay** bo'lishi kerak. Chunki orqaga qaraganda biz **o'rgilmaymiz**, balki **o'grilamiz**. Xonanda-yu raqqosaga pul **o'giramiz**. Ya'ni boshidan aylantirib, so'ng do'ppisiga qistiramiz, cho'ntagiga solamiz, yo mashhoqlar oldiga tashlaymiz. Aylanish va o'grilish bir mazmunli so'zlar. Lekin **o'grilish** demakka til qovushmaydi, shu bois, bu so'z bir shevada **o'grilish**, yana bir shevada **o'vrilish**, evrilish bo'lgan. **O'g'rilik** so'zi ham shunday. U ham ikki tovush o'rin almashib **o'g'rilikka** aylandi. Bu noto'g'ri. **O'g'ir** — don-dun maydalaydigan uzun yog'och **hovon**. Uni **keli** deb ham ataymiz. **O'g'irlik qilish** o'g'ir vazifasini bajarish, tuyish, yanchish bo'ladi. Afsuski, **o'g'irlik** lug'atlarimizga kirib qonunlashdi. Bu — ilm so'zi qadrsiz, avom so'zi mo'tabar sanalagan zamondan bizga meros qolgan xatolik. Agar **o'g'rilikni o'g'irlik** desak, **to'g'rilikni** ham **to'g'irlik** deyishimiz kerak bo'ladi.

bitilgan. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asari bunday dostonlarning eng sarasi va ulug'idir. Teskari tushgan tovushlar haqidagi suhbatni shu yerda yakunlasak bo'ladi. Men o'zim bilgan, yodimga tushgan so'zlarni aytdim. Xotiramdan ko'tarilgan yana qanday teskari tovushli so'z bor deya xayolan izlayman. Bor ekan! Qaysi so'z deng! Suhbatimiz mavzusi bo'lgan **teskari** so'zi! Uning o'zagi **ters** bo'ladi. **G'alati**, ya'ni **xatolik** so'zini bugun qiziq ma'nosida ishlatishimiz **g'alat** — xato bo'lganidek, **teskari** so'zining o'zi **teskari** ekan. Chuqur bo'lmagan narsa **yuzaki**, pishmagan narsa **xomaki**, xonada o'sgan gul **xonaki**, chillada pishgan meva **chillaki**, har gapga jizillab ketadigan odam **jizzaki**, boringki, o'sha jizzakining tars etib urgani **tarsaki** bo'lganidek, **ters** qo'yilgan qadam, **ters** qilingan ish **tersaki** bo'ladi. Lekin **tersaki** deyish qiyin. **Teskari** osonroq. Siz bu fikrga shubha qilishingiz tayin. To'g'ri qilasiz. Aytishingiz aniqiki, **teskari** so'zi **xonaki** bilan shakldosh emas. Urxun-Yenisey yozuvlarida o'qiganman. Qadimgi tilimizda yo'nalishni bildiruvchi **qaru** qo'shimchasi bo'lgan. Bugunda faqat **tashqari**, **ichkari** so'zlarida saqlanib qolgan. Aksar holda **qaru** qisqarib, **qa** bo'ladi. **Qa** ham madaniylashib, yumshab, avval **g'a**, so'ng bugungi **ga** shakliga kirdi. **Teskari** ham boshda **tersqaru** bo'lgan. Aytishga qulay bo'lsin uchun bir tovushni yutamiz-da, **teskari** deymiz. Bu sizning fikringiz. Agar dalil bilan isbot qilsangiz, tan bermagan nomard. Men **tersaki** deyman. Lekin biror tarixiy manbada bunday so'zni uchratmaganman. Agar siz uning **tersqaru** shaklini uchratgan bo'lsangiz, qayerda ko'rganingizni aytasangiz, siz g'olibsiz. Ilm-u ijodning joni bo'lgan halol bahs asli shu. Yutqizgan ko'proq yutadi. Bilmaganini bilib oladi-da.

Tersaki bilan shakldosh **tobaki** degan so'zimiz bor. Uning qismati ajoyib. **Tob** o'zak so'zning qizitish, kuydirish ma'nolaridan kelib chiqqan, **toba** (yassi qozoncha. Biz uni **tova**, **tava** deymiz), **toblanish**, **obu tob**, **tobiga** keltirish singari kalimalar ko'p. **Tobaki** deb **tobada** pishirilgan yoki umuman, qovurilgan taom atiladi. Tok bargiga qiyma o'rab tovada tayyorlagan **do'lma** ham **tavaki** deyiladi. Xullas, **tobaki** degan so'z safarga chiqib, Rossiyaga bordi va o'ris bo'lib qaytdi. Meliboy Misha, Safarboy Sasha, Ergashboy Erik bo'lib qaytgani kabi **tobaki** degan nomini **tabaka** qilib keldi. Tobada pishgan taom ekani esidan chiqdi va qovurilgan to'jaga aylandi. Biz ham o'zimizning bolamizni tanimay **tabaka** deb chaqiradigan bo'ldik.

Tilshunoslikda **jo'nalish kelishigi** degan atama bor. **Yo'nalish** so'zidan. **Otdanish**, **saflanish**, **rivojlanish**, **o'nglanish**, **nurlanish**, **bog'lanish**, **nozlanish**, **turlanish** deganimiz kabi bu so'zni ham yo'llanish desak, to'g'ri bo'lardi. Chunki o'zak **yo'l**. **Yo'n** emas. **Yo'llash** deb osongina aytamiz-u, **yo'llanish** deyishgatilimiz qayrilmaydi, **yo'nalish** deymiz. Qipchoq shevasida so'zlashuvchi o'zbeklar, ya'ni "jo'qchilar" **yo'lni jo'l** deyildilar. So'zning qismatiga qarangi, **yo'llanish yo'nalishga**, **yo'nalish jo'nalishga** aylandi va biz sarfu nahvdagi bir atamani **jo'nalish kelishigi** dedik. **Yo'lga tushdi** degan ma'nodagi **yo'llab ketdi** shevaga ko'chib **jo'llab ketdi** shaklini oldi. U ham eskirib, bugun biz mehmon o'z yurtiga **jo'nab ketdi**, deymiz. **Jo'nash** so'zining o'zagi **yo'l** deb ko'ring, birov ishonarmikin?

Xalq asrlar davomida tilga ishlav beradi, aytishga qulay holga keltiradi. So'z ma'nolari o'zgaradi, tovushlar tushib qoladi, o'rni almashadi. Bunday holat beistisno barcha tillarda bor. Hamma so'zlarni asliga qaytarish ilojisiz. Kim bugun **kiftni kitf**, **qulfni qufl**, **yomg'irni yog'mur** deya oladi? Yoki kim tilimizga kirgan arabcha so'zlarni arabdek, inglizchani inglizdek ayta oladi? Hatto til mutaxassislariга oson emas. Bugungi til va talaffuzimiz tarixan tarkib topgan va u bizniki. Faqat so'zlarimg asl ma'nosini bilib qo'ysak, xatolarimizni imkon qadar to'g'rilab borsak, yomon bo'lmas.

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri



Vatan manzumasi

SEN MENDA YASHAYSAN, SEN DEB YASHAYMAN

Xavfsizlik kengashining 2023 yil 13-yanvar kuni bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari mas'ul tashkilotlar oldiga ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ishlarni rivojlantirish bo'yicha qator vazifalarni qo'ygan edi. Ularning ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida mana, uchinchi yildirki, respublikamiz bo'ylab "Vatan manzumasi" adabiy-ma'rifiy kechalari o'tkazib kelinmoqda va u jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

Tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, el-yurt farovonligi uchun safarbarlik, vatanparvarlik, mardlik va jasorat singari ezry fazilatlar aks ettirilgan mazkur adabiy-ma'rifiy tadbirlarda turli soha vakillari va harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda vatan himoyasiga otlangan yosh kursantlar ham ishtirok etmoqda. Dastur yuksak vatanparvarlik, mardlik va jasorat, tinchlik va osoyishtalikni qadrlash, el-yurt farovonligi uchun safarbarlik singari fazilatlar ta'sirchan shakllarda tarannum qilinayotgani bilan ahamiyatli bo'lyapti.

Poytaxtimizdagi "Turkiston" saroyida taqdimoti o'tkazilgan navbatdagi "Vatan manzumasi" dasturida ham ana shunday ezgu

borayotgan jonajon O'zbekistonimiz mustaqilligini, chegaralarimiz daxlsizligini munosib himoya qilish uchun zarur harbiy bilim va ko'nikmalarni egallashi ta'sirchan lavhalarda namoyon bo'ldi, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Rustam Musurmon. — Dastur davomida taniqli baxshilar tomonidan ijro etilgan, ona vatanni ulug'lovchi termalar, buyuk ajdodlarimiz — mard va jasur sarkarda Jaloliddin Manguberdi hamda Sohibqiron Amir Temur monologlari, o'zbekona oriyat va g'urur tarannum etilgan, jadid ma'rifatparvarlarining yurti taraqqiyotiga erishish yo'lidagi



tushuncha va qadriyatlar o'ziga xos talqinda aks ettirildi. "Yangi O'zbekiston armiyasi — mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" degan ezgu g'oya asosida tayyorlangan dastur shakl va mazmun jihatidan yanada takomillashib, ko'lami va qamrovini kengaytgan e'tiborga loyiq. Unda poytaxtimizdagi G'alaba bog'ida istiqlol yillarida yurtimiz tinchligi va uning sarhadlari daxlsizligini himoya qilish yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan mard va jasur harbiylarning xotirasiga bag'ishlangan "Millat fidoyilari" xotira yodgorligi hamda Ikkinchi jahon urushi janggochlarida mardona kurashgan hamda front ortida mehnat qilgan vatandoshlarimizning tengsiz jasoratini madh etuvchi "Xotira nuri" kompozitsiyasi barpo etilishining ma'naviy hayotimizdagi ahamiyatini ochib berishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Ma'rifiy dastur aniq g'oya va syujet hamda teatrlashtirilgan badiiy kompozitsiyalar asosida tayyorlangani bilan ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi. Tashkiliy va ijodiy guruh tomonidan vatan va ona xalqqa muhabbat va sodiqat tuyg'usi ulug'langan, tomoshabinlarning ma'naviy olamini yuksaltiradigan ta'sirchan she'rlar saralandi. Yangi qo'shiqlar yaratildi. She'r va kuy-qo'shiqlarning ma'no-mazmunini ifodalaydigan, ularning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan mazmundor videolavhalar suratga olindi.

Kechada O'zbekiston Qurolli Kuchlaridagi zamonaviy o'zgarishlar, "Xalq bilan armiya — bir tan-u bir jon" ezgu g'oyasi, ko'p millatli xalqimizga xos o'zaro ahillik va hamjihatlik tuyg'ularining milliy armiyamiz hayotida yorqin namoyon bo'layotgani chuqur mazmun bilan ochib berildi.

Askarlarning hayajonli va mas'uliyatli harbiy faoliyati, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin topib

intilishlari aks ettirilgan sahna ko'rinishlari, taniqli ijodkorlar va iste'dodli yosh shoirlar ijrosidagi she'r va qo'shiqlar, harbiy jamoalarning chiqishlari hech kimni befarq qoldirmadi.

Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan ijro etilgan "Yangi O'zbekiston armiyasi", "Men posbonman", "Armiya va tarbiya" singari qo'shiqlar va boshqa qator qiziqarli musiqiy-xoreografik chiqishlar tomoshabinlar tomonidan olqishlar bilan qarshi olindi. "Nihol" mukofoti sovrindori Saidnosir Yigitaliyev, iste'dodli xonandalar Shuhrat Daryo, Madina Fayzullayeva, O'temis Jumaniyazov milliy va mumtoz qo'shiqlari bilan davraga fayz kiritdi.

Tadbir davomida sahnadagi ishtirokchilar bilan zalga yig'ilgan tomoshabinlar bir butun vujudga aylanib ketdi go'yo. Bu "Vatan manzumasi" dasturining maqsad-g'oyalari el-yurtimiz dilidagi his-tuyg'ularga hamohang ekanidan, xalqimizning ong u tafakkuri, bugungi va kelajak hayotimizga daxldorlik tuyg'usi yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Adabiy-ma'rifiy dastur taqdimotida davlat va jamoat arboblari, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari, tizimdagi harbiy ta'lim muassasalari kursantlari, taniqli madaniyat, san'at va adabiyot namoyandalari, ilm-fan va ommaviy axborot vositalari xodimlari, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. "Vatan manzumasi"ni Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyat, tuman, ta'lim muassasalari va mahallalarda ham namoyish etish rejalashtirilgan.

Nodir QOBILJONOV,
jurnalist

“

Asrlar o'tdi. Zulqarnayn laqabi ham zamonlar osha o'z asl ma'nosini yo'qotgan so'zlar qatoriga kirdi. Uning ikki shoxli degan mazmuni unutilib, Iskandar adolat, aql-zakovat, mardlik va saxovat timsoliga aylandi. Insonlarning odil shoh to'g'risidagi orzusi shu nomda mujassam bo'ldi. Qur'oni karimda ham Zulqarnayn zikr etilgan. U haqda o'lmas dostonlar bitilgan. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asari bunday dostonlarning eng sarasi va ulug'idir.

aylonayin, Xorazmda aynanayin deyiladi. Aslida, qanday ekanini hazrat Navoiydan so'raymiz. Javob shunday: **Muztarib ko'nglim aro ul yuz xayoli aylanur, Mavjlig' suda quyosh aks nechuikim chayaqalur.** Yana bir yerda aytilganlar: ... **tegramga oncha sa'b giriftorlig' aylandi.** Demak, aylansin deyilgani to'g'ri ekan. Adabiy tilimizga bu so'z asl shaklida olinibdi. Ko'nglimiz joyiga tushdi. Tilimizda bu kabi tovush almashgan so'zlar ko'p. Almashuvning bir turi aytish qiyin bo'lgani uchun majburiyat yuzasidan sodir bo'lgan. **Kift, qulf, avf, bo'yra, kiprik** so'zlari aslida **kitf, qufl, afv, bo'ryo, kirpik** bo'lgan. **Tilsim** ham **tilism** deyilishi kerak. Lekin bu so'zlar talaffuziga tilimiz kelmaydi. **Yomg'ir** aslida **yog'mur**. **Yog'mak, yog'in** shu o'zakdan. Aytish oson bo'lsin uchun yomg'irga aylandi. **Tuproqni** ham qulaylik yuzasidan **turpoq** deymiz. **Yemak** ma'nosidagi **ovqat** so'zimiz ham aslida ushbu ma'noni bildiruvchi arabcha **qut** so'zining ko'plik shakli — **aqvot** bo'lgan. Biz tilimizga moslab avval **avqot**, so'ng **ovqat** qilib olganmiz. Lekin ko'pgina tovush almashuvi, yozuvda harf almashuvi ixtiyorsiz, yana ham to'g'rirog'i, so'zga e'tiborsizlikdan yuz beradi. **Saltanat** ismining **Santalatga**, **Maryamxonning** **Mayramxonga**, **Nazrullaning** **Narzullaga** aylanib qolgani bunga misol bo'ladi. **Aynalsin quling** deb kuylagan **Lutfixon** ayani yoshligida o'z qarindoshlari **Luftixon** deb chaqirganlar. Chunki vodiya shunday aytiladi. **To'g'ramoqni to'rg'amoq, qiynalmoqni qiylanmoq, yumronqoziqni yurmonqoziq** deyish ham vodiya xos. **Sumalakni** turkistonlik o'zbeklar

O'ylasam, ikki tovushning o'rin almashuvi juda uzoq tarixga ega ekan. **Aleksandr Makedonskiyning Iskandar Maqduniyga** aylanishi bunga bir misol. Arablar Aleksandr nomini bamiisoli **Al-Xorazmiy, Al-Buxoriy, Al-Farg'oniy** degandek **Al-Iksandar** deb qabul qilganlar. Islamlari oddiygina qilib **Termiziy, Beruniy, Marg'iloniy** deyilgani kabi bora-bora bu nomdan ham **Al** qo'shimchasi tushib qolgan. Lekin **Iksandar** ham talaffuzga qiyin. Shu bois, qulaylik qoidasiga ko'ra, ismdagi ikki harf almashib, **Iksandar Iskandarga** aylangan. Bunday evrilishni his qilmagan kishiga **Aleksandr** qayoqda-yu **Iskandar** qayoqda! Odatda xalq o'zi to'qigan rivoyatlarni mashhur shaxslar nomi bilan bog'laydi. Chingizxon, Amir Temur, Napoleonga nisbat berilgan hikmatlar, hikoyatlar juda ko'p. Shoxdor podshoning sataroshi o'zi bilgan haqiqatni birovga aytolmay qomi shishib ketgani, oxir quduqqa so'zlab azobdan qutulgani va quddudan o'sib chiqqan qamish nay bo'lib simi olamga yuvgani to'g'risida ibratli ertak bor, yaxshi bilasiz. Podsho va sarkardalar ichida Iskandardan mashhuri bo'lmagani uchun rivoyat uning nomiga bog'langan. Emishki, nay **Iskandarning shoxi bor** deb kuylagan. Tirikligidayoq shuhrati olamga ketgan bu ulug' sarkarda shu ertak bois, Iskandar Zulqarnayn — ikki shohli Iskandar nomini oldi.

Asrlar o'tdi. Zulqarnayn laqabi ham zamonlar osha o'z asl ma'nosini yo'qotgan so'zlar qatoriga kirdi. Uning ikki shoxli degan mazmuni unutilib, Iskandar adolat, aql-zakovat, mardlik va saxovat timsoliga aylandi. Insonlarning odil shoh to'g'risidagi orzusi shu nomda mujassam bo'ldi. Qur'oni karimda ham Zulqarnayn zikr etilgan. U haqda o'lmas dostonlar